

Dunyoning yirik shahar aglomeratsiyalari

Tashtayeva Sevara Sharofiddin qizi

ToshDSHI, I bosqich magistranti

Annotatsiya

Maqolada hozirda ro'y berayotgan zamonaviy hududiy-demografik tendensiyalardan biri – aglomeratsiyalar, megalopolislar, ularning shakllanish sabablari hamda rivojlanishi tahlil etilgan. Shuningdek, dunyoning eng yirik megalopolislari, ularning o'ziga xos xususiyatlari, hududiy joylashuv masalalari yoritib berilgan.

Bir necha aglomeratsiyalarning qo'shilib ketishidan hosil bo'lgan polosasimon urbanizatsiyalashgan zonaga **megalopolislar** deb atalib, ularning eng yiriklari AQSh, Yevropa, Yaponiyada joylashgan.¹

Shaharlar funksiyalari ulardagi aholi soni o'sishi bilan tarixiy jihatdan qay darajada bog'liq bo'lsa, shahar atrofi hududlari tomon kengayib borishiga ham bog'liq. Natijada shahar aholisining ma'lum hududda joylashgan va bir-biri bilan doimiy mehnat, madaniy-maishiy, ishlab chiqarish, tashkiliy-xo'jalik, ma'muriy va boshqaruvga aloqador hamda boshqa aloqalarni o'z ichiga oluvchi, aglomeratsiya deb nomlangan aholi manzilgohlari tizimining zamonaviy rivojlangan guruhlariga yuzaga keladi.

Ular bir yoki bir necha markazlar atrofida shakllanishi mumkin. Hozirda dunyodagi eng yirik aglomeratsiyalar Tokio, Mexiko, Bombay, San-Paulu, Nyu-York kabilar hisoblanadi. XXI asr boshlarida dunyoda har birida 10 mln. dan ortiq bo'lgan 19 ta yirik shaharlar aglomeratsiyalari aniqlangan.² Faqatgina AQShning o'zida 1500 dan ortiq mamlakat aholisining 70 foizi qamrab oluvchi aglomeratsiyalar shakllangan bo'lsa, Buyuk Britaniyada har birida 8 mln. aholi istiqomat qiluvchi sakaizga yaqin shahar aglomeratsiyalari mavjud.³ Shu bilan birga, Xitoyning Shanxay, Braziliyaning Rio-de-janeyro, Argentinaning Bueos-

¹ 2012 World Population Data Sheet. Population Reference Bureau

² 2012 World Population Data Sheet. Population Reference Bureau of Europe

³ Global city GDP rankings 2008-2025

Ayres, Hindistonning Kalkutta, Dehli, Pokistonning Karachi kabi urbanizatyalashgan hududlari yuqori sur'atlarda rivojlanmoqda.

Ular birinchi marta J.Gottman tomonidan 50-yillarda AQShning Atlantika okeani shimoliy qismidagi bu jarayonlarni kuzatib, 200 km. kenglikda 1000 km. uzunlikda bir-biriga o'tuvchi Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Vashington aglomeratsiyalarini o'z ichiga oluvchi **BosVash** hammasi bo'lib, 40 aglomeratsiyani o'z ichiga oluvchi umumiy maydoni 170 000 km² ni tashkil etadi. Jan Gottman unga megalopolis deb nom beradi va birinchi aglomeratsiyaga asos soladi.

Xuddi shu nom ostida 1961-yilda tadqiqot asosida monografiya chiqarilib, bu "asosiy ko'cha" da Amerika aholisining 50 mln.i istiqomat qilib, (20%), bu hududda Amerikada ishlab chiqariluvchi umumiy sanoat mahsulotining ¼ qismi ishlab chiqarilar edi.⁴ Boshqa megalopolis – **CHIPITS** esa, Amerikadagi Buyuk Ko'llarning janubiy qismida shakllanib, o'z ichiga Chikago, Pittsburg, Klivlend, Detroyt va boshqalar (35 aglomeratsiya) ni olgan holda, umumiy hududi 160 000 km² ga yetadi. Aholisi esa, umumiy holda 35 mln. dan oshgan. Bu megapolis aholisining asosiy qismini eng katta aglomeratsiyalar – Toronto hamda Kanada tashkil etadi.

BoshVash o'z ichiga 500 ga yaqin shaharlardan tashkil topib, AQSh ning 3% hududini qamrab olgan holda, mamlakatning 27 % sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Megalopolislar G'arbiy Yevropada ham shakllanib, ular tabiiyki, aholisi soni kamligi, uning markazlashuvi jihatidan boshqa AQSh hamda Yaponiyadagi megalopolislaridan ajralib tursada, bu mintaqada ham Angliya hamda Reyn megalopolislari tarkib topgan. Agar, Angliya megalopolisi London, Birmingem, Liverpul, Manchester va boshqa aglomeratsiyalardan tarkib topgan bo'lsa, Reyn megalopolisida asosiy rol ni Niderlandiyadagi Ranstad "halqa"si, Germaniyadagi Reyn-Rur, Reyn-Mayn kabi aglomeratsiyalar o'ynaydi. Har ikki megalopolis o'ttiztadan aglomeratsiyani o'z ichiga olib, 50 000 km.² maydondagi 30-35 mln. kishini qamrab oladi. Agar, Londonning metropolitan hududini o'z ichiga olgan

⁴ Demographia World Urban Areas (World Agglomerations) 7th Annual Edition (2011.04)

London aglomeratsiyasi 12 mln. kishidan tarkib topgan bo'lsa, Parij aglomeratsiyasi faqatgina shahar hududini qamrab olib, 10 mln. kishi, Quyi Reyn-Rur aglomeratsiyasi taxminan 11 mln. kishi istiqomat qiladi.

Bu "Havorang banan" megalopolisida 110 mln. aholi istiqomat qilib, u o'z ichiga Angliya va Reyn-Rur aglomeratsiyalari yoki kichik megalopolislarini oladi.

O'z alohida xususiyatlariga ega bo'lgan urbanizatsiyalashgan megalopolis tipidagi mintqa 1980-1990-yillarda Xitoy janubida ham shakllanib, uning markazini erkin iqtisodiy mintqa – Shenchjen 3.3 mln. kishilik aholisi bilan tashkil etadi. Bu megalopolis tipidagi mintqa 1995-yilda o'rganib chiqilib, unga nafaqat, markaz hisoblanuvchi 3.3 mln. kishilik Shenchjen, balki 1997-yili Buyuk Britaniya tomonidan Xitoyga qaytarib berilgan 5.6 mln. kishilik Gonkong, 1999-yil oxirida Portugaliya tomonidan Xitoy hududiga aylantishga ruxsat berilgan 1 mln. aholini o'z ichiga oluvchi Chxujay (Makao yonida joylashgan) va Janubiy Xitoy eng yirik aglomertsiyasi hisoblangan Guanjou 4 mln. dan ortiq aholisi bilan kirishi aniq qayd etildi. XXI asrda bu yerda 30 mln. aholini qamrab olgan yirik megalopolis shakllanishi kuzatilmoqda.

Bu kabi aglomeratsiyalarning soni tobora oshib borishi, unda istiqomat qiluvchi aholi soni, sohalari hamda aholi talabi tarkibining turlicha bo'lishiga ta'sir etadi. Shu bilan birgalikda hududlardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik holat ham tobora yomonlashib boradi. Ammo, aglomeratsiyalarda jarayonlar tabiiy ravishda rivojlanishini hisobga olsak, uni sun'iy yo'l bilan o'zgartirishga harakat qilish yoki to'xtatish natijasida boshqa turdagi muammolar kelib chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. World Urbanization Prospects, the 2011 Revision. Population of urban agglomerations with 750,000 inhabitants or more, 1950—2025
2. Demographia World Urban Areas (World Agglomerations). 8th Annual Edition: Version 2. July 2012
3. <http://www.demographia.com/db-worldua.pdf>